

**Yetti yosh inqirozi va uning sabablari**

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

***Abduraimova Mohichehra Jo'ra qizi***

***Akmalova Laylo Turovovna***

***Toshmamatova Xonzoda Muzaffar qizi***

***Annotatsiya.*** Ushbu maqolada yangi tug'ilgan go'dakdagi inqiroz ,bolalarni maktabga aqliy va ijtimoiy –psixologik tayyorlashning psixologik tomonlari,7 yoshlilar inqirozi va uning sabablari alomatlari haqida fikrlar va mulohazalar keng tarzda yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** temperament xususiyatlari,tug'ilish davri,psixologik rivojlanish,chaqaloq sezgi organlari,o'qish faoliyati, hissiyotlar tasiri,shaxsiy ong,ijtimoiy muhit, ijtimoiy munosabat.

Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cgan bo'lishi lozim. Biroq u hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar.Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan o'cgan bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal kiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining etilganligidur, deyдилar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l quyishdan boshqa narsa emas.

Bolaning yetti yoshga to'lishi bilan shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan

davridan boshlab sistemali suratda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga chiqmaydi. Aksincha, biror maqsad harakat davomida belgilanadi. Ularning maqsadlari ham juda tez o'zgarib turadi. Shuning uchun ular ko'pincha boshlagan ishlarini oxirga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi bir tamomila boshqa ishga o'tib ketaveradilar. Buning asosiy sababi shundaki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining ixtiyorsiz harakatlarida hissiyot juda katta o'pin egallaydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga quyilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qatilylik ko'rsatishlari mumkin.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib to'pa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinadiki, bolalar o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitdan o'z o'yinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga borishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez, surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda xavaslar kelib, o'zlari bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar tizimidan yangini egallashga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsining ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim tarbiya ishi ko'taradi. Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojuya xattiharakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlatirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat kila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi. Jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, Ko'p narsalarning nomini va ulardan

qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi ma'lum darajada usgan bo'ladi, u o'z urtoklari va kattalar bilan erkin suxbat qila oladi. Yetti yoshli bolalarning his-tuyg'ulari ancha o'sadi.

Xayrixohlik, rahmdillik, o'rtoqlik kabi his-tuyg'ular mustahkamlana boshlaydi.

Bu davrda bolada turli harakatlar mustahkamlanadi, u qaychi, igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor faollik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta'sir qiladigai narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'tish mehnatiga o'tish uchun zarur bo'lgan xislatlardir. O'yin jarayonida bolaning akl-idroki, zexn va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'tishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yetti yoshga to'lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o'sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Ko'pchilikning nazarida o'tish davri inson hayotining faqatgina o'smirlik qismida sodir bo'ladi. Ammo unday emas. Balki biz umrimiz davomida 7-8, ba'zan 10 marotabagacha o'tish bosqichlarini boshdan kechiramiz. Qaysi davr bo'lmasin, ularning har birida murakkab emotsional holat yuzaga kelishi mumkin. Bunda inson bolasining o'zi va atrofidaogilar bilan munosabati o'zgaradi, turli kasalliklar, stress, surunkali holsizlik va asabiylik, organizmda gormonal va boshqa fiziologik evrilishlar kuzatiladi. Mazkur maqolada inson hayotining dastlabki bosqichidagi eng muhim, diqqat va e'tibor qaratish lozim bo'lgan o'tish davri inqirozlari sanab o'tilgan.

**Yangi tug'ilgan go'dakdagi inqiroz.** Go'dak dunyoga kelar ekan, tabiiyki, ma'lum muddat organizmining mutlaqo notanish muhitga moslashish jarayonini boshdan kechiradi. Ya'ni, issiqqina, xavf-xatarlardan holi ona qornidan yorug' dunyoga qadam ranjida qiladi. Bu paytda nafas olish va ovqatlanishdan tortib, ko'rish, harakatlanish va boshqa ko'plab fiziologik jarayonlar butunlay o'zga bir shaklga almashinadi. Psixotahlilchilarning so'zlariga qaraganda, bu paytda olingan har qanday tan jarohati insonga umr bo'yi hamrohlik qiladi.

**3 yosh inqirozi.** Shaxsiy "men"ni anglash bosqichi hisoblangan 3 yoshda ko'pchilik bolalar kattalar va tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladi. Mashhur nemis psixologi Elz Keler "Uch yoshli bola shaxsiyati" nomli ishida mazkur davrda turgan bolalar ruhiyatiga xos o'zgarishlarning yetti ko'rinishini sanab o'tgan. Uning fikricha, oshiriladi.munosabatlarida salbiy reaksiya kuzatilib, bola kattalarga bo'ysinishni istamaydi. Shu bilan birga, injiqlik, qaysarlik, o'zboshimchalik, e'tiroz bildirishlar, kattalarni qadrsizlantirishga urinish va bolalar despotizmi (zo'ravonligi) kuzatilib, ko'pincha undan "men o'zim..." iborasini eshitish mumkin. Noto'g'ri tarbiya natijasi o'laroq, bolaning javob reaksiyasi ba'zi hollarda o'ta salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

**6-7 yoshga** kelib bolada tishlarning almashishi, yuz qiyofasining o'zgarishi, bola tanasining tez o'sishi, organizmi chidamliligining ortishi, mushaklarning quvvatga to'lishi, harakatlar muvozanatining takomillashuvi kuzatiladi. 3 yoshlilar inqirozi paytida bola o'zining mavjudligini, menini anglab yetgan bo'lsa, bu yoshga kelib ijtimoiy munosabatlardagi o'z o'rnini topishga harakat qila boshlaydi. Ya'ni, mavjudlikdagi "men"dan ijtimoiy "men" sari qadam tashlanadi. Maktabgacha yoshdagi bola o'z-o'ziga "men mehribonman", "men qiynalayapman", "men yomon ish qilayapman" degan so'zlarni ayta oladi. O'z harakatlariga nisbatan ongli yondashib, eski qiziqishlar o'rniga yangilari bilan shug'ullana boshlaydi.

Biroq bolada hali hissiyotlarini boshqarish qobiliyati shakllanmagan bo'ladi. Omadsizliklar zanjiri (o'qish yoki kattalar bilan bo'lgan munosabatlarda) norasolik, kamsitilish, o'ziga ishonchning susayishi, kompetentlik, o'ziga xosliklarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bola ongli ravishda qandaydir rol ni bajarish, avvaldan tayyorlangan, biroq unchalik haqiqatga mos bo'lmagan qiyofalarga kirishga harakat qila boshlaydi. Bu paytda bola tarbiyasida og'irlashib, uni boshqarish birmuncha qiyinlashadi. Mazkur davrda bola uchun eng zarur bo'lgan narsa — hurmat. Agarda mazkur ehtiyoj qondirilmasa, u bilan o'zaro tushunishga asoslangan munosabatlarni o'rnatish qiyinlashadi.

Shu bilan birga, ota-onasining odatiy buyruq va talablari bilan hisoblashib, muhokama qila boshlaydi, ayyorlik, o'jarlikka moyil bo'ladi. Tez-tez “nima uchun?”, “qanday?”, “nega?” degan savollarni bera boshlaydi. Mazkur yosh samimiylilikning yo'qolishi bilan ham xarakterli bo'lib, bu bolaning har bir xatti-harakatiga ehtiyotkorlik va bosiqlik, sabr-toqat bilan javob berish lozimligini anglatadi.

Xulosa shuki ota ona bo'lish oson emas –bu bilan hech kim bahslasha olmaydi. Ba'zida farzandlarimiz sevgimiz va g'amxo'rligimizga javob beradi, chunki bu bizga ko'rinmas. Birinchi bolaning inqirozi bilan ota-onalar juda ertan uchrashadilar. Birinchidan bu inqiroz bolaning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq. Sizing kichkintoyingiz nafaqat o'g'il, nabira va boshqalar, balki o'quvchi, sinfdosh hamdir. Uning huquq va majburiyatlari bilan jamoatchilik rolga egadur. Esingizda bolsin bu qiyinchiliklar vaqtinchadur va bolangizni hozirgi salbiyligi uning shaxsiyatidagi o'zgarishlarning o'zgarishi uning rivojlanishi bilan bog'liqdur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.E.G'oziyev."Pedagogik psixologiya asoslari"

2.I.kasbiy psixologiya .O'quv qo'llanma .Toshkent-2019 .Aripova N

3.Petrovskiy "Umumiy psixologiya "

4.internet saytlari:

Ziyonet .uz.

@taqi\_arm

5.[https:// farzand.uz](https://farzand.uz)